



Xorazm viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **22 764** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **650** taga ko'paygan. yoki **2,9 %** ga o'shgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,6** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-martida **1 368** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **95,1 %** tashkil etdi.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
22 114	Xorazm viloyati	22 764
4 129	Urganch sh	4 372
1 838	Xiva sh.	1 748
1 478	Bog'ot	1 590
1 480	Gurlan	1 467
1 692	Qo'shko'pir	1 881
2 448	Urganch	2 541
1 337	Hazorasp	1 398
593	Tuproqqal'a	610
1 772	Xonqa	1 766
1 534	Xiva	1 587
1 458	Shovot	1 485
1 279	Yangiariq.	1 269
1 076	Yangibozor	1 050

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **22 764** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 368** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 372** tani yoki jamiga nisbatan **19,2 %** ni tashkil etdi.

1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda*

Urganch sh.	28,5
Xiva sh.	17,7
Bog'ot	11,1
Gurlan	12,0
Qo'shko'pir	12,6
Urganch	13,6
Hazorasp	8,6
Tuproqqal'a	14,1
Xonqa	11,5
Xiva	12,5
Shovot	11,4
Yangiariq	12,9
Yangibozor	16,3

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- aprel holatiga, birlikda



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **13,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **2,3** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **28,5** birlik, Xiva shahrida **17,7** birlik, Yangibozor tumanida **16,3** birlik, Tuproqqal'a tumanida **14,1** birlik, Urganch tumanida **13,6** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri
– 28,5 birlik




O'rta ko'rsatkich

Qo'shko'pir tumani
– 12,6 birlik



Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 8,6 birlik



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida 28,5 birlik, Xiva shahrida 17,7 birlik, Yangibozor tumanida 16,3 birlik, Tuproqqal'a tumanida 14,1 birlik, Urganch tumanida 13,6 birlik, Yangiariq tumanida 12,9 birlik, Qo'shko'pir tumanida 12,6 birlik, Xiva tumanida 12,5 birlik, Gurlan tumanida 12,0 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, birlikda

Urganch shahri

28,5

Yangibozor tumani

16,3

Urganch tumani

13,6

Xiva shahri

17,7

Tuproqqal'a tumani


14,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.		2024- y.
187	Urganch sh.	174
89	Xiva sh.	93
109	Bog'ot	133
105	Gurlan	98
126	Qo'shko'pir	84
131	Urganch	137
110	Hazorasp	116
39	Tuproqqal'a	45
75	Xonqa	89
81	Xiva	94
226	Shovot	154
95	Yangiariq	81
65	Yangibozor	70

2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **12,7 %**, Shovot tumani – **11,3 %**, Urganch tumani – **10,0 %**, Bog'ot tumani – **9,7 %**, Hazorasp tumani – **8,5 %**, Gurlan tumani – **7,2 %**, Xiva tumani – **6,9 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **481** ta, sanoatda **342** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **170** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida **174** ta, Shovot tumanida **154** ta hamda Urganch tumanida **137** ta yangidan tashkil etilgan.


2023- y. 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **7 017** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 341** ta (yoki **33,4** %), xizmatlar sohasida – **1 481** ta (yoki **21,0** %), sanoat sohasida – **1 635** ta (yoki **23,3** %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 219** ta (yoki **17,4** %) va qurilish sohasida – **341** tani (yoki **4,9** %) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **63,0** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,4** oshgan.




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,4** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,6** % ni, chakana savdoda **94,9** % ni, yuk tashishda **94,3** % ni yo'lovchi tashishda **93,9** % ni, qurilishda **86,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **891,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**195,9** mlrd. so'm), Urganch (**146,4** mlrd. so'm), Xonqa (**88,3** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**80,8** mlrd. so'm) va Gurlan (**53,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangiariq tumanida (**29,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 16,9 % ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Urganch tumani (55,5 %), Xiva sh. (47,4 %), Bog‘ot tumani (43,4 %), Qo‘shko‘pir tumani (39,3 %), Xonqa tumani (34,3 %), Xiva tumani (32,4 %), Yangibozor tumani (30,1 %), Gurlan tumani (27,5 %), Urganch sh. (26,7 %) va Hazorasp tumani (21,2 %) ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	204,8	66,7
Xiva sh.	74,7	97,0
Bog'ot	55,9	80,0
Gurlan	56,5	97,7
Qo'shko'pir	70,1	96,3
Urganch	122,6	87,9
Hazorasp	83,9	97,8
Tuproqqal'a	30,0	94,3
Xonqa	73,2	94,3
Xiva	98,4	96,5
Shovot	76,2	98,4
Yangiariq	49,6	92,8
Yangibozor	50,2	91,2


hajmi, mlrd. so'mda ↑
 ulushi, % da ↑

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1046,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **86,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **112,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**204,8** mlrd. so'm), Urganch (**122,6** mlrd. so'm), Xiva (**98,4** mlrd. so'm), Hazorasp (**83,9** mlrd. so'm), Shovot (**76,2** mlrd. so'm), Xiva shahrida (**74,7** mlrd. so'm) Xonqa (**73,3** mlrd. so'm) hamda Qo'shko'pir (**70,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1329,5** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **53,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **166,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Xiva shahri (**591,9** mlrd. so'm), Urganch shahri (**144,2** mlrd. so'm), Urganch (**98,8** mlrd. so'm), Yangibozor (**88,0** mlrd. so'm), Hazorasp (**73,0** mlrd. so'm), Xonqa (**66,5** mlrd. so'm), Gurlan (**49,7** mlrd. so'm) hamda Bog'ot (**48,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichiktadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **3 645,2** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,2** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Qo'shko'pir (**413,2** mlrd. so'm), Urganch (**408,1** mlrd. so'm), Xonqa (**372,4** mlrd. so'm), Xiva (**369,9** mlrd. so'm), Gurlan (**364,7** mlrd. so'm) hamda Shovot (**330,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	138,4	99,2
Xiva sh.	16,9	99,6
Bog'ot	330,3	98,8
Gurlan	364,7	99,6
Qo'shko'pir	413,2	97,8
Urganch	408,1	99,5
Hazorasp	304,2	99,8
Tuproqqal'a	87,9	99,4
Xonqa	372,4	99,1
Xiva	369,9	99,7
Shovot	330,4	98,6
Yangiariq	284,9	90,2
Yangibozor	223,9	99,5


hajmi, mlrd. so'mda
 ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 788,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **110,1 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Urganch sh.	764,7	88,0
Xiva sh.	123,2	94,0
Bog'ot	161,6	97,7
Gurlan	227,5	99,5
Qo'shko'pir	146,5	99,5
Urganch	336,7	98,8
Hazorasp	308,3	96,8
Tuproqqal'a	69,4	99,8
Xonqa	176,1	99,4
Xiva	90,9	94,4
Shovot	186,1	95,7
Yangiariq	120,3	99,5
Yangibozor	77,1	95,9

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**764,7** mlrd. so'm), Urganch (**336,7** mlrd. so'm), Hazorasp (**308,3** mlrd. so'm), Gurlan (**227,5** mlrd. so'm), Shovot (**186,1** mlrd. so'm), Xonqa (**176,1** mlrd. so'm) va Bog'ot (**161,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Urganch sh.	480,7
Urganch	200,6
Xonqa	186,3
Bog'ot	154,4
Hazoraspt	153,5
Qo'shko'pir	143,8
Xiva	140,3
Gurlan	139,4
Shovot	129,4
Yangiariq	120,0
Xiva sh/	118,7
Yangibozor	113,7
Tuproqqal'a	57,1


2024- yil yanvar- mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 138,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,8 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **112,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**480,7** mlrd. so'm), Urganch (**200,6** mlrd. so'm), Xonqa (**186,3** mlrd. so'm), Bog'ot (**154,4** mlrd. so'm), Hazoraspt (**153,5** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**143,8** mlrd. so'm) va Xiva (**140,3** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollari




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Urganch sh.	999,3	12,8
Xiva sh.	4160,3	93,8
Bog'ot	6544,0	95,0
Gurlan	6920,8	78,4
Qo'shko'pir	6028,3	100,0
Urganch	6022,5	80,6
Hazorasp	3583,8	100,0
Tuproqqal'a	5404,7	82,7
Xonqa	6740,2	67,3
Xiva	1219,3	28,1
Shovot	1758,6	12,6
Yangiariq	2598,7	94,5
Yangibozor	7823,1	88,0

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **60 281,1** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **65,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qo'shko'pir tumanida – **100,0** %, Hazorasp tumanida – **100,0** %, Bog'ot tumanida – **95,0** %, Yangiariq tumanida – **94,5** %, Xiva sh. – **93,8** %, Yangibozor tumanida – **88,0** % Tuproqqal'a tumanida – **82,7** % va Urganch tumanida – **80,6** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **12,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **64 286,2** ming AQSH dollarini yoki jami importning **64,7** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **100,0** %, Xiva tumanida – **96,0** %, Urganch tumanida – **94,8** %, Xiva sh. – **91,8** %, Bog'ot tumanida – **91,6** %, Urganch sh. – **86,3** %, hamda Xonqa tumanida – **85,6** % ni tashkil etdi.

Hazorasp	100,0
Xiva	96,0
Urganch	94,8
Xiva sh.	91,8
Bog'ot	91,6
Urganch sh.	86,3
Xonqa	85,6
Yangiariq.	64,0
Gurlan	57,0
Yangibozor	19,4
Shovot	14,1
Qo'shko'pir	11,6
Tuproqqal'a	3,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



94,3 %

Yuk
tashishda

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,3 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7 %** ni tashkil qildi.



82,3 %

Yuk
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,3 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,5 %** ni tashkil qildi.



93,9 %

Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,9 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,1 %** ni tashkil qildi.




95,6 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,6 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 131 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 389 (34,4 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 701 ta (62,0 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 41 ta (3,6 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 41,6 % (471 ta), xizmatlar sohasida – 28,8 % (324 ta), sanoatda – 13,4 % (152 ta), qurilishda – 8,0 % (91 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 % (93 ta)ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

267	Urganch sh.	23,6
78	Xiva sh.	6,9
85	Bog'ot	7,5
59	Gurlan	5,2
44	Qo'shko'pir	3,9
137	Urganch	12,1
80	Hazorasp	7,1
29	Tuproqqal'a	2,6
79	Xonqa	7,0
67	Xiva	5,9
70	Shovot	6,2
77	Yangiariq	6,8
59	Yangibozor	5,2


Birlik

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**267** ta), Urganch (**137** ta), Xonqa tumanlari (**79** ta) va Xiva shahri (**78** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning I choragida **228** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **386** taga yetgan yoki 2019- yilning I choragiga nisbatan **158** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **484** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **701** ta yoki **217** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **13** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-martida **41** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **28** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **446** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **386** tani tashkil etib yoki 2019- yilga nisbatan **60** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **260** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **579** ta yoki **319** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning I choragida **6** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **27** tani tashkil etib **21** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **31,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **34,4** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **3,0** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **66,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **62,0** % yoki **4,8** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning I choragida **1,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,6** % ga yetgan yoki **1,8** % ga oshgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **62,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **38,9** % ga yetgan yoki 2019- yilning I choragida nisbatan **23,7** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **36,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **58,4** % yoki **21,9** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning I choragida **0,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **2,7** % yoki **1,8** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **44,1** % ni, qurilishda – **35,2** % ni, savdoda – **34,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **64,5** % ni, sanoatda – **62,5** % ni, savdoda – **61,1** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **6,6** % ni, xizmatlar sohasida – **4,6** % ni, savdoda – **4,1** % ni tashkil etdi.

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **54,9** % ni, xizmatlar sohasida – **51,2** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **50,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – **54,6** % ni, savdoda – **51,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **48,4** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **2,8** % ni, savdoda – **1,4** %, sanoatda – **1,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	38,4	57,4	4,2
Band bo'lganlar soni	23,0	74,3	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	28,5	69,0	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,0	67,0	5,0
Raqobat muhiti	35,0	62,9	2,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	46,0	52,6	1,4
Band bo'lganlar soni	26,8	71,8	1,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,3	63,3	1,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,3	64,4	5,3
Raqobat muhiti	36,3	62,0	1,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli